

FIZIKA O'QITISH METODIKASI VA USLUBLARNING FOYDALI ISH KOEFITSIYENTI

Nabiyev Fazliddin Farrxodjon o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Rivojlanib borayotgan ta'lim tizimida fizika fanini yanada chuqur o'zlashtirish maqsadida ushbu maqolada fizika fanini soddalashtirish uchun metodlar va AKT lardan foydalanish haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: AKT, kashfiyotlar, didaktik asoslar, model

Abstract: In order to deepen the mastery of physics in the developing education system, this article provides a summary of the methods and use of ICT to simplify physics.

Key words: ICT, discoveries, didactic foundations, model

Bizga ma'lumki fizika fanini dastlab o'rganish bosqichi Maktablarda boshlanadi fizika fanini fundamental bilimlarining barini dastlab maktabdan olamiz, bu esa fizika fanini puxta o'rganish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa shuncha bino mustahkam bo'ladi shuning uchun maktablarda fizika fanini o'qitishda yangicha yondashuv va alohida e'tibor kerak degani! Maktab darsligi eng muhim didaktik o'quv qurollaridan biridir. U didaktikaning asosiy talablari va qoidalariga javob berishi, zamonaviy maktabda o'qitish (ta'lim va tarbiya) maqsadlariga, umumiy va alohida fanlar bo'yicha ta'lim mazmuni, ta'limning umume'tirof etilgan tamoyillari, ta'limning tashkiliy shakllariga javob berishi kerak. Darslikni qurishning fundamental didaktik asoslaridan biri ta'lim mazmuni va prosessual jihatlarining birligini, shuningdek, o'qitish va o'qitishning birligini hisobga olishdir. Shu munosabat bilan darslik bir vaqtning o'zida ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunining turli elementlarini belgilash shakllarining tashuvchisi va o'quv jarayonining loyihasi (model) sifatida ishlaydi. Fizika jadal rivojlanayotgan fanlardan biri bo'lib, so'nggi bir necha o'n yilliklar ichida eng yuqori darajadagi juda ko'p fizik kashfiyotlar amalga oshirildi. Bu bir tomondan, yangi kuchli nazariy tushunchalar va usullarning paydo bo'lishi bilan ikkinchi tomondan, prinsipial jihatdan yangi ilmiy asboblardan, usullardan va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan eksperimental texnikaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Shunday ekan savolo tug'iladi O'zbekiston Respublikasida joylashgan maktablardagi fizika darsliklari talab darajasidami yoki biz fizika faniga yetarli darajada qiziqmaymizmi? Albatta darsliklardagi ma'lumotlar ham darsliklar ham yetarli va jahon standartlariga mo'va va xosdir shunchaki fizika fani murakkabligi uchun qiziquvchilarning kamligi bor gap. Xo'sh unday bo'lsa nima qilish kerak? Albatta soddalashtirish kerak ya'ni fizika fanini o'qitish jarayonida yangicha

metodlardan zamonaviy anjomlarga(gadjet) chambarchars tarzda bog‘lab mavzu doirasini va qiziqarlilik darajasini ortirishga harakat qilish kerak. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hozirgi kunga kelib fizika darsligi 5 qismga ajratgan xolda o‘rganiladi;

Mexanika

Molekulyar fizika

Elektr va magnetizm

Optika

Atom va yadro fizikasi

Mana shu asosiy 5 fizikaning bo‘limi tabiat haqidagi umumiy tushunchani paydo qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kudryavsev P.S. Kurs istorii fiziki. M. 1989;
2. Ziyaxanov R.F., Mirzayev A.T., Astronomiya va fizika tarixi, I qism, Toshkent, 2008;
3. Pannekuk A, Istoriya astronomii, M., Nauka, 1966;
4. Mirzayev A.T. Astronomiya tarixi. (ma‘ruzalar matni). T. O‘zMU. 2000;